

PROBATSIIYA XIZMATINING QIDIRUV YO'NALISHI: HUQUQIY VA MUHIM JIHATLARI**Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna***IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası katta o'qituvchisi***Abdulxamidov Samandar Ziyobidin o'g'li***O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti***Annotatsiya:**

Mazkur maqolada probatsiya xizmatining qidiruv yo'nalishi, uning huquqiy asoslari hamda amaliy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda probatsiya nazoratidan bo'yin tovlayotgan shaxslarni aniqlash va qidirish jarayonining o'ziga xos jihatlari, ushbu faoliyatni tashkil etishda idoralararo hamkorlikning o'rni hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, qidiruv faoliyatini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan. Maqola probatsiya xizmatining qidiruv yo'nalishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *probatsiya xizmati, qidiruv faoliyati, sud qarorlarining ijrosi, nazoratdan bo'yin tovlagan shaxslar, idoralararo hamkorlik.*

РОЗЫСКНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СЛУЖБЫ ПРОБАЦИИ: ПРАВОВЫЕ И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ**Аннотация:**

В данной статье рассматриваются правовые и организационные основы розыскного направления деятельности службы пробации. В исследовании анализируются особенности розыска лиц, уклоняющихся от пробационного контроля, роль межведомственного взаимодействия, а также возможности применения современных информационных технологий в розыскной деятельности. Кроме того, выявляются существующие проблемы в организации розыскной работы службы пробации и предлагаются научно-обоснованные практические рекомендации по повышению ее эффективности. Материалы статьи направлены на совершенствование розыскного направления деятельности службы пробации.

Ключевые слова: *служба пробации, розыскная деятельность, исполнение судебных решений, уклонение от контроля, межведомственное взаимодействие.*

INVESTIGATIVE ACTIVITIES OF THE PROBATION SERVICE: LEGAL AND KEY ASPECTS

Abstract:

This article examines the search (investigative) direction of probation service activities, focusing on its legal and organizational framework. The study analyzes the specific features of locating individuals who evade probation supervision, the role of interagency cooperation, and the use of modern information technologies in search activities. Additionally, existing problems in organizing probation search activities are identified, and scientifically grounded practical recommendations are proposed to improve their effectiveness. The article aims to contribute to enhancing the efficiency of the probation service's search operations.

Keywords: *probation service, search activity, enforcement of court decisions, evasion of supervision, interagency cooperation.*

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, probatsiya instituti jazoni ijro etish tizimining muhim bo'g'ini sifatida shakllanib, jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda nazorat qilish va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Probatsiya xizmatining samaradorligi ko'p jihatdan uning qidiruv faoliyati qay darajada tashkil etilganiga bog'liq. Zero, probatsiya nazoratidan bo'yin tovlagan shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va topish sud qarorlarining ijrosini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Probatsiya xizmatining qidiruv faoliyati, probatsiya nazoratidan bo'yin tovlash maqsadida yashash joyini o'zboshimchalik bilan o'zgartirgan yoki sudning jazo tayinlangan xukm ijrosini o'tashdan qasddan bo'yin tovlayotgan shaxslarni aniqlash va topishga qaratilgan faoliyatdir⁴⁴. Mazkur faoliyati sud hukmlarining ijrosini ta'minlash hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning ijrosini ta'minlashda probatsiya bo'linmalari quyidagilarni amalga oshiradi:

- probatsiya nazoratidagi shaxslarning hisobini yuritadi;
- probatsiya nazoratidagi shaxslarga jazoni o'tash tartibi va shartlarini tushuntiriradi;
- probatsiya nazoratidagi shaxs tomonidan jazoni o'tash shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi;
- probatsiya nazoratidagi shaxs jazoni o'taydigan joyda (ob'ektda) tashkilotlar (organlar) tomonidan hukm talablarining bajarilishini nazorat qiladi;
- probatsiya nazoratidagi shaxs ishlagan vaqt hisobini yuritishi va

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni.

tashkilotlarning (organlarning) majburiy jamoat ishlari o‘taladigan joylar (ob’ektlar) bo‘yicha probatsiya nazoratidagi shaxslar ishlagan vaqt hisobga olinishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni solishtirib chiqishni har ikki oyda bir marotaba amalga oshiradi;

- qidiruv e‘lon qilish yoki jazoning o‘talmay qolgan muddatini jazoning boshqa turi bilan almashtirish to‘g‘risida sudga taqdimnoma yuboradi;

- probatsiya nazoratidagi shaxs talabiga ko‘ra jazodan ozod qilingani yoki jazoni o‘tab bo‘lgani haqida ma‘lumotnoma taqdim etadi;

- probatsiya nazoratidagi shaxs vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo‘lganida yoki uzrli sabablarga ko‘ra yashash joyidan chiqib ketganida jazoni ijro etish boshlanishi vaqtini kechiktiradi⁴⁵.

Probatsiya nazoratidagi shaxsning turgan joyi ma‘lum bo‘lmagan taqdirda, probatsiya bo‘linmasi unga nisbatan qidiruv e‘lon qilish uchun sudga taqdimnoma yuboradi.

Sud ajrimi asosida qidiruv e‘lon qilingan probatsiya nazoratidagi shaxslar qidiruvdagilar hisobida turadi va hisobdan vaqtincha saqlash hibsxonasiga joylashtirilganidan so‘ng chiqariladi⁴⁶.

Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki himoya qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash;

- jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish;

- surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yo‘qolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash;

- shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to‘plash⁴⁷.

Qidiruv faoliyati probatsiya xodimlaridan yuqori darajadagi mas‘uliyat, huquqiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talab etadi. Ushbu faoliyat qonuniylik, inson huquqlariga hurmat va shaxsiy hayot daxlsizligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi⁴⁸.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 19.08.2025 yildagi “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 403-sonli buyrug‘i

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 19.08.2025 yildagi “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 403-sonli buyrug‘i

⁴⁷ “Tezkor qidiruv faoliyati” to‘g‘risidagi qonun O‘RQ – 344-son. 25.12.2012-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/>

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Probatsiya xizmatining qidiruv faoliyati O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, "Probatsiya to'g'risida"gi Qonun hamda Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanadi. Ushbu hujjatlar qidiruv ishlarini amalga oshirish tartibi, vakolatli organlar va ularning o'zaro hamkorligini belgilab beradi.

Huquqiy asoslarning aniqligi qidiruv faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Probatsiya xizmatining qidiruv faoliyati ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, sudlar, prokuratura hamda mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv imkoniyatlaridan foydalanish qidiruv tadbirlarining tezkorligi va samaradorligini oshiradi.

Idoralararo hamkorlik axborot almashinuvi, qo'shma reydlar va profilaktik tadbirlar orqali yo'lga qo'yiladi.

Amaliyotda probatsiya xizmatining qidiruv faoliyatini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada takomillashmaganligi, kadrlar malakasining pastligi hamda moddiy-texnik ta'minotdagi kamchiliklarni kiritish mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qidiruv faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni yanada aniqlashtirish, xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, probatsiya xizmatining qidiruv yo'nalishi sud qarorlarining ijrosini ta'minlash va qayta jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishni huquqiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish probatsiya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent.
<https://www.lex.uz/acts/111453>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi O'RQ 938-son Qonuni 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>
5. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik/I.Ismailov, Q.R. Abdurasulova, A.A. Shodiev, Z.Q. Jabbarov, D.M. Usmonov va boshqalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.
6. "Tezkor qidiruv faoliyati" to'g'risidagi qonun O'RQ – 344-son. 25.12.2012-yil
<https://www.lex.uz/uz/docs/>

7. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 19.08.2025 yildagi “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 403-sonli buyrug‘i